

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

YO‘LDOSHEVA DILNOZA XASAN QIZI

**XXI ASR O‘ZBEK DRAMATURGIYASIDA TAVTOLOGIYA VA
PLEONAZMNING LINGVOPRAGMATIK, LINGVOKOGNITIV TAHLILI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Yo‘ldosheva Dilnoza Xasan qizi

XXI asr o‘zbek dramaturgiyasida tautologiya va pleonazmning
lingvopragmatik, lingvokognitiv tahlili 3

Йулдошева Дилноза Хасан кизи

Лингвопрагматический, лингвокогнитивный анализ тавтологии
и плеоназма в узбекской драматургии XXI века 23

Yo‘ldosheva Dilnoza Hasan qizi

Linguopragmatic and linguocognitive analysis of tautology and pleonasm
in 21 st-century uzbek dramaturgy 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 51

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

YO‘LDOSHEVA DILNOZA XASAN QIZI

**XXI ASR O‘ZBEK DRAMATURGIYASIDA TAVTOLOGIYA VA
PLEONAZMNING LINGVOPRAGMATIK, LINGVOKOGNITIV TAHLILI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3271 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusubova Rano Norboyevna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Karimov Suyun Amirovich
filologiya fanlari doktori, professor

Bozorova Gulmira Zayniddinovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti


Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomli Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "12" aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Samarqand davlat universiteti bosh o'quv binosi, 105. Tel.: (+99866) 240-38-49, faks (0 366) 239-11-40, (0366) 239-12-47, E-mail: devonxona@samdu.uz).


Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (21 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 240-38-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "29" mart kuni tarqatildi.
(2025-yil "29" mart dagi 29 -raqamli reestr bayonnomasi).




J.D. Eltazarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, f.f.d.,
professor


Sh.S. Mahmadiyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.f.n., dotsent


X.Z. Xayrullayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, f.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til taraqqiyoti muammolari, til o'zgarishlarini aniqlash sabablari, odatda, muayyan lingvistik tadqiqotlarni umumlashtirish doirasida hal etilmoqda. Tilshunoslikda til imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligini ta'minlashda tavnologiya va pleonazm hodisalarining o'rnini, ularning lingvopragmatik, lingvokognitiv jihatlarini tillarning tabiatini hisobga olgan holda yoritish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Tilning rivojlanishi va faoliyati unda yuz beradigan nutqiy jarayonlar bilan belgilanar ekan, til resurslarini ortiqcha qo'llash asosida tilning ichki tendensiyalaridan biri bo'lgan tavnologiya va pleonazmning yuzaga kelishidagi pragmatik omillar hamda hodisalarining kognitiv asoslarini tilshunoslikning zamonaviy yondashuvlari asosida ko'rib chiqish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Dunyo tilshunosligida nutqning faoliyat sifatida talqin qilinishi zamonaviy nazariy tilshunoslikni yangicha qarashlar, tahlil usullari bilan boyitdi, natijada dunyoda mavjud barcha tillarda muayyan hodisaning u yoki bu darajada namoyon bo'lishi tilning rivojini ta'minlovchi zaxira ekanligi borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Har qanday til birligining yoki nutqiy hodisaning paydo bo'lishi yoki o'zgarishi, tabiiyki, o'zaro ta'sir va harakat natijasida sodir etilishiga e'tibor qaratilib, bu bir tomondan, aloqa vositasi sifatida tilning dinamik tabiatiga va ikkinchi tomondan, til birliklarining o'zaro "moslashuvi"ga bog'liq ekanligi, bunday o'rinlarda til tamoyillari ta'sirida muayyan hodisalar yuzaga kelishi, ortiqchalik tamoyili asosida yuzaga kelgan tavnologiya va pleonazm hodisalarini ochib berish tilshunoslik sohasida zaruratga aylanmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda o'zbek tilining nufuzi va mavqeyini mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan islohotlar ko'lami ortib bormoqda. "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"¹. Shu bois bugungi tadqiqotlarda o'zbek tilining milliy-madaniy xususiyatlarini namoyon qiluvchi til birliklarini chuqurroq o'rganish kun tartibiga qo'yildi. Adabiy asarning abadiy asar darajasiga ko'tarila olishi uning lisoniy tarkibi, asar muallifining kognitiv bazasi va pragmatik yondashuviga bog'liq ekanligi har qanday adabiy asarning mohiyatini, uning tarkibidagi til birliklarini chuqur o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/4561730>

“Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 989-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 2020-yil 29-yanvardagi 40-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I.Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tautologiya va pleonazmning o‘rganishning tarixiy ildizlari antik davrdan boshlangan bo‘lib, keyinchalik jahon tilshunosligida chuqurroq o‘rganilganligi ma‘lum. Antik davrda pleonazm hodisasi ritorika va stilistika doirasida o‘rganilgan, jumladan, pleonazmni Kvintilian, Donat, Diomed stilistik kamchilik sifatida, ya‘ni “nutqda so‘zlarning ortiqcha qo‘llanishi” deb talqin etishgan bo‘lsa, Dionis Galikarnasskiy pleonazm hodisasini “nutqni to‘ldiruvchi omil” deya e‘tirof etgan. Xususan, rus tilshunoslari ushbu hodisalarni keng ko‘lamda o‘rganishgan. O‘zbek tilshunosligida ham pleonazm kengroq, tautologiya esa birmuncha torroq doirada o‘rganilgan.

Tilshunoslikda ortiqchalik tamoyilini G.Glison, A.Borovkov, A.Greymas, V.Zveginsev, V.Gak, A.Kononov, M.Mexeda, A.Sherbak, B.Sheronov, E.Grudevalar¹ tadqiq etishgan. Xususan, tilda tautologiya hodisasini ilmiy asosda V.I.Korolkov, O.A.Zays, T.S.Ostapenko, T.A.Kovaleva, G.N.Korableva, E.B.Bogatova, L.I.Vitgenshteyn, A.Abdullayeva, A.M.Bushuyar², pleonazm

¹ Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. – М.: Иностр. лит., 1959. – 486 с.; Боровков А.К. Краткий очерк грамматики узбекского языка // Узбекско-русский словарь. – М.: Государственное издательство иностранных и национальных словарей, 1959. – 727 с.; Greimas A.J. Semantique structurale. – Paris, Larousse, 1966. – 262 p.; Звегинцев В.А. Теоретическая и прикладная лингвистика – М.: Просвещение, 1968. – 338 с.; Гак В.Г. Семантическая структура слова как компонент семантической структуры высказывания // Семантическая структура слова: психолингв. исследования. – М.: Наука, 1971. – С.78-96.; Гак В.Г. Сопоставительная лексикология. – М.: Международные отношения, 1977. – 264 с.; Кононов А.Н. Уменьшительные формы имен и словообразование // Вопросы тюркологии. – Баку, 1971. – С.94-101.; Мехеда М.И. Дихотомия «экономия и избыточность» в субстандартном словообразовании: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Тюмень, 2010. – 25 с.; Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (имя). – Ленинград: Наука, 1977. – 191 с.; Шеронов Б. Ўзбек тили гап қурилишида лисоний ортиқчалик: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 21 б.; Грудева Е.В. Избыточность текста, редукция и эллипсис: Автореф. дисс. ...д-ра филол. наук. – Санкт Петербург, 2008. – 41 с.

² Корольков В.И. К теории фигур // Сборник научных трудов. – Вып. 78. Московский государственный педагогический институт иностранных языков им. Мориса Тореза. – М., 1973. – С.60-93.; Ковалева Т.А. Тавтология и плеоназм в отечественном языкознании: интегральный и дифференциальный аспекты // Вестник МГОУ. Серия: Русская филология, 2016. – № 2. – С.34-40.; Зайц О.А. Семантика и прагматика тавтологий и плеоназмов: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт Петербург, 2001. – 41 с.; Остапенко Т.С. Когнитивно-стратегический потенциал тавтологии: Автореф. ...дисс. канд. филол. наук. – Иркутск, 2010. – 18 с.; Кораблева Г.Н., Горелова Л.Н. Тавтология как стилистический прием (на материале произведений М.Зощенко) // Российский государственный университет им. Н.А.Косыгина (Технологии. Дизайн. Искусство). – М., 2020. – С. 205-209.; Богатова Е.Б. Типологическое исследование репрезентаций тавтологии в разных дискурсах // Вестн. Иркут. гос. лингвист. ун-та. – 2014. – № 2. – С.250-255.; Витгенштейн Л. Логико-философский трактат. – М.: Издательство АСТ, 2018. – 160 с.; Абдуллаева А. Система повторов в кумыкском языке: Дисс. ...канд

hodisasini esa V.I.Korolkov, T.A.Kovaleva, G.F.Blagova, A.Bolganbayev, G.D.Ajibekova, R.Qo'ng'urov, N.Mahkamov, M.Turobova, A.Pardayev, R.Yusubova, G.Bozorovalar¹ tadqiq etishgan.

Demak, pleonazm hodisasi o'zbek tilshunosligi uchun yangi hodisa emas, tilshunoslar tomonidan ushbu hodisa atroflicha tadqiq etilgan va izlanishlar davom etmoqda. Pleonazm va tautologiyani farqli tomonlarini, lingvopragmatik va lingvokognitiv xususiyatlarini dramatik matn misolida monografik planda o'rganish taqozo etilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universiteti "O'zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XXI asr o'zbek dramaturgiyasidagi tautologik va pleonastik shakllarning lingvopragmatik va lingvokognitiv xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

antik davrda nutqiy ortiqchalikning tautologiya va pleonazm hodisalarida namoyon bo'lishiga munosabat, shu bilan birga dunyo tilshunosligi, turkiyshunoslik, xususan, o'zbek tilshunosligida tautologiya va pleonazmning o'rganilganlik darajasini tahlil etish;

mantiq ilmda tautologiya va pleonazmga doir turli xil nazariy qarashlarni lingvistik asoslash;

badiiy-estetik mazmunning voqelanishida tautologiya va pleonazm hodisalarining o'rni va rolini ko'rsatish;

o'zbek dramaturgiyasida tautologiya va pleonazmning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi pragmatik omillarni tahlil qilish;

tautologiyani kognitiv-strategik imkoniyatlarini hamda pleonazmning kognitiv-estetik xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqot obyekti sifatida XXI asr o'zbek dramaturgiyasiga munosib hissa qo'shgan Ibrohim Rahim, Abduqahhor Ibrohimov, Usmon Azim, Erkin A'zam,

филол. наук. – Махачкала, 1999. – 188 с.; Бушуй А.М. К теории тавтологии в языкознании // Язык и литература. Материалы II Республиканской научно-теоретической конференции молодых ученых и аспирантов, посвященной 50-летию Ленинского комсомола. – Самарканд, 1969. – С.30-43.

¹ Корольков В.И. К теории фигур // Сборник научных трудов. – Вып. 78. Московский государственный педагогический институт иностранных языков им. Мориса Тореза. – М., 1973. – С.60-93.; Ковалева Т.А. Тавтология и плеоназм в русском языке XXI века: полисистемный аспект: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Великий Новгород, 2017. – 24 с.; Благова Г.Ф. Тюркский аффиксальный плеоназм в сравнительно-историческом и ареально-лингвистическом освещении // Вопросы языкознания. – М., 1968. – №6. – С.81-98.; Болганбаев А. Синонимика имени существительного в казахском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1955. – 29 с.; Ажибекова Г.Д. Место плеоназмов в системе средств языковой избыточности (на материале современного казахского языка) // Советская тюркология. – Баку, 1982. – №1. – С.51-61.; Кўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент, 1980. – 168 б.; Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Тошкент: Фан, 1988. – 96 б.; Туробова М. Ўзбек шеваларида синтактик плеоназмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1982. – №5. – Б.50-54.; Пардаев А.Б. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматикаси: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 77 б.; Юсубова Р. Ҳозирги ўзбек поэзиясида лисоний тежамлилиқ ва ортиқчалиқ (А.Орипов лирикаси мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 24 б.; Yusubova R. Tejamlilik va ortiqchalikning lingvopoetik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri. (DSc) diss. – Samarqand, 2021. – 248 b.; Bozорова G. O'zbek tilida pleonastik birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari. Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2023. – 48 b.

Gulnora Rahmon, Shuhrat Rizayev, Iqbol Mirzo, Qo'chqor Norqobilovlarning dramalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini XXI asr o'zbek dramalarida qo'llanilgan tavgologiya va pleonazmning lingvopragmatik va lingvokognitiv xususiyatlarini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, komponent va kontekstual hamda lingvopoetik va kognitiv-pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ortiqchalikning bir ko'rinishi bo'lgan tavgologiyada *eng xavfsiz xavfsizlik, uzoq kutilgan g'alabani kutmoq* kabi bir asosdan tarkib topgan leksemalarning takrorlanishi va bu takror tobe munosabatli birikuvdan tuzilganligi ochib berilgan bo'lsa, ortiqchalikning ikkinchi turi bo'lgan pleonazmda *o'zining tarjimai holi, orqaga qaytish* kabi birliklardagi turli asosdan tarkib topgan leksemalarning qisman yoki to'liq semantik takroridan hosil bo'lishi asoslangan;

badiiy matnda pleonazm hodisasi qahramonning pragmatik intensiyasini yuzaga chiqarish talabi bilan amal qilishi *mazza, ro'baro', yuzma-yuz, quloch-quloch so'zlar, uyli-joyli* hamda *kelishik, egalik, ko'plik* qo'shimchalarining uyushiq bo'laklarning har biriga qo'shilishi, tavgologiya personaj nutqida uning til haqidagi bilimlarni to'liq o'zlashtirmaganligini asoslashi *bepul vakansiya, qo'shimcha bonus, mahalliy aborigen* kabi birikmalar bilan bir qatorda, personajning chuqur psixik holati, kutilmagan vaziyatlarga duch kelishi dalillangan;

tavgologiya va pleonazmning yuzaga kelishida lisoniy birliklarning pragmatik, kognitiv ko'lami har bir til egasining konseptual olami, nutqiy malakasi bilan aloqadorligi aniqlashtirilgan;

tavgologiya tabiatiga ko'ra zaruriy informatsiya ifodalamaydigan ortiqchalik bo'lganligi sababli qahramon nutqida strategik potensialga ega bo'lishi, personaj tomonidan hosil qilingan hodisaning nutqiy imkoniyatlari *"inersiyaga ko'ra", "odat tusiga kirgan", "bilimlar yetishmasligiga ko'ra", "maqsad"ga yo'naltirilgan* tavgologiya ko'rinishida yuzaga kelishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

badiiy matnda ortiqchalik tamoyiliga asoslangan hodisalar badiiy asar tilining o'ziga xosligini ta'minlashda, personajlar xarakter-xususiyatlarini ochib berishda hamda matnda emotsional-ekspressivlikni ta'minlashda muhim vosita ekanligi dramatik asarlar misolida dalillangan;

har qanday tavgologik qo'llanishda pleonazmni kuzatish mumkinligi, lekin har qanday pleonastik qo'llanishda tavgologiya mavjud bo'lavermasligi, shunday ekan, pleonazm jins tushunchasi, tavgologiya esa tur tushunchasi sifatida qaralishi asoslangan;

"tavgologiya" va "pleonazm" terminlari amaliyotda ko'p hollarda dubletlar sifatida qo'llanilishi, pleonazm tavgologiya hodisasiga qaraganda kengroq tushuncha, ya'ni pleonazmda takror qo'llanayotgan shakl (so'z, affiks, so'z birikmasi) tamoman ortiqcha bo'lishi yoki muayyan pragmatik maqsadga yo'naltirilganligi dramatik nutqqa xos nutqiy aktlar misolida yoritilgan;

dramatik matnda qo'llangan har qanday pleonazm ma'lum pragmatik omillar natijasida vujudga kelishi, har bir pleonastik qo'llanish ortida konnotativ maqsad

ifodalanishi, soʻzlovchi nutqidagi har bir tahlil ostiga olingan jumlar maʼlum maqsad asosida yuzaga kelishi, ushbu jihat ijodkor tilining badiiyatini, mukammalligini, asar qahramonlarining shaxsiy portretini chizishda katta ahamiyat kasb etishi xarakterli misollar asosida ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq qilingan qarashlar, usullar va nazariy maʼlumotlarning aniq ilmiy manbalarga asoslanganligi, keltirilgan tahlillar dialektik, tavsiflash, tasniflash, funksional-semantik, qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, lingvopoetik tahlil metodlari yordamida dalillanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dramatik nutqqa xos tavgologiya va pleonazm shakllarining lingvopragmatik va lingvokognitiv xususiyatlariga doir masalalarning toʻldirilishi va boyitilishiga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dramatik matnlardagi til birliklarini oʻrganish uchun muhim manba boʻlib xizmat qila olishi va oliy oʻquv yurtlarida filologiya yoʻnalishi boʻyicha yaratilayotgan “Matn lingvistikasi”, “Badiiy matnning lisoniy tahlili”, “Oʻqituvchi nutq madaniyati”, “Oʻzbek tili stilistikasi” kabi fanlaridan maʼruzalar oʻqish, seminar mashgʻulotlari va maxsus kurslarni oʻtishda, badiiy asar tili, poetik matn bilan bogʻliq ilmiy tushunchalarning shakllanishi va rivojiga muayyan hissa boʻlib qoʻshilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XXI asr oʻzbek dramaturgiyasida tavgologiya va pleonazmning lingvopragmatik, lingvokognitiv tahlili mavzusidagi tadqiqot boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

antik davrda nutqiy ortiqchalikning tavgologiya va pleonazm hodisalarida namoyon boʻlishiga munosabat dunyo tilshunosligi, turkiyshunoslik, xususan, oʻzbek tilshunosligida tavgologiya va pleonazmning oʻrganilganlik darajasini umumlashtirish vazifalari, mantiq ilmida tavgologiyaning qoʻllanishiga doir nazariy qarashlarni ilmiy asoslash vazifalari, badiiy-estetik mazmunning voqelanishida tavgologiya va pleonazm hodisalarining oʻrni va rolini koʻrsatish xususidagi nazariy xulosalardan FA-F1-G002 raqamli “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 27-iyundagi 252/1-son maʼlumotnomasi). Ilmiy natijalar asosida tavgologiya va pleonazmning oʻrganilganlik darajasini umumlashtirish vazifalari mukammallashtirilgan;

oʻzbek dramaturgiyasida tavgologiya va pleonazmning yuzaga kelishiga sabab boʻluvchi lingvopragmatik omillarni tahlil qilish, tavgologiya va pleonazmning kognitiv-strategik imkoniyatlarini ochib berish, mazkur kuzatuvlardan olingan natijalarni umumlashtirish xususidagi xulosalardan FA-F-1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti tarixi tadqiqi” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 27-iyundagi 251/1-son maʼlumotnomasi). Ilmiy natijaning amaliyotga tatbiq etilishi badiiy matnning lingvopragmatik, lingvokognitiv tahlilida tavgologiya

va pleonazmning til ro'yobidagi o'rnini belgilashda muhim asos bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

tavtologiya va pleonazm hodisalarining lingvopragmatik, lingvokognitiv xususiyatlari, tilda ortiqchalik hodisalarining o'rinli va o'rinsiz qo'llanishi, pleonazm hodisasining nutqiy ta'sirchanlikni oshirish uchun xizmat qilishiga oid xulosalardan Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining "Assalom, yangi kun", "Adabiyot va hayot", "Jarayon", "Nazm va navo", "O'zbek adabiyoti" kabi ko'rsatuv va radioeshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 5-iyundagi 02-10/197-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleloyihalarning dolzarbligi, ilmiy-ommabopligi va tayyorlangan materiallar mazmuni mukamallashishi ta'minlangan;

ortiqchalikning bir ko'rinishi bo'lgan *tavtologiyada eng xavfsiz xavfsizlik, uzoq kutilgan g'alabani kutmoq* kabi bir asosdan tarkib topgan leksemalarning takrorlanishi va bu takror tobe munosabatli birikuvdan tuzilganligi ochib berilgan bo'lsa, ortiqchalikning ikkinchi turi bo'lgan pleonazmda *o'zining tarjimai holi, orqaga qaytish* kabi birliklardagi turli asosdan tarkib topgan leksemalarning qisman yoki to'liq semantik takrori hosil bo'lishidan Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining "Assalom, yangi kun", "O'zbek adabiyoti" kabi ko'rsatuv va radioeshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 5-iyundagi 02-10/197-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleloyihalardagi ko'rsatuvlarning ssenariylaridagi ilmiy-ommaboplik hamda dolzarblik ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish, shundan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 134 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob "**Tavtologiya va pleonazmni ilmiy o'rganishning nazariy asoslari**" deb nomlanib, tavtologiya va pleonazmning dunyo, rus va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi, dastlab til taraqqiyotining omili bo'lgan til ortiqchaligi tizimli o'rganishning boshlanishi bo'lishi mumkinligi tilning turli sathlarida yuzaga

kelgan takrorlar misolida qaralgan bo'lsa, keyinchalik ortiqchalik mohiyati tautologiya va pleonazm hodisalarini yonma-yon qo'yish asnosida o'rganilgan.

Bobning birinchi bo'limi "*Ortiqchalik: tautologiya va pleonazm*" deb nomlangan. Tilni tadqiq etishning hozirgi bosqichida XX asr lingvistik izlanishlariga xos an'analarga ergashgan holda, o'zining uzoq yillik tarixiga ega bo'lgan ortiqchalik tamoyilining tautologiya va pleonazm hodisalarini o'zaro qiyoslash orqali o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashtirishdan tashqari, nega u yoki bu hodisa til egalari nutqida ustuvorligini, qanday qiymatga egaligini, qo'llanish chastotasini aniqlash asnosida mohiyat mantig'ini topish mumkin bo'ladi. Har ikkala hodisa mohiyatida "ortiqchalik" belgisi namoyon, faqat bu ortiqchalikning nutqdagi bahosi farqlanadi. Shu bois zamonaviy tadqiqotchilarning keng ko'lamli ishlarida (rus, ingliz, nemis, fransuz, chex va boshqa tillarda) tautologik va pleonastik qurilmalar taqqoslash asosida o'rganilgan.

Tilshunoslikning yangi yo'nalishlariga mos tahlil usullaridan foydalanilgan holda tautologiya va pleonazmni tadqiq etish, xususan, kognitiv, pragmatik, psixolingvistik, sotsiolingvistik aspektlarda o'rganish hodisalarining yuzaga kelish va til sohiblari tomonidan doimiy qo'llanishi mohiyatini to'liqroq anglashga imkon yaratadi.

Antik davrda ritorika (notiqlik san'ati) odamlarni ishontirish uchun ommaviy nutqlarni samarali tashkil qilish san'ati sifatida maydonga kelgan. Notiqlik san'atini chuqur o'zlashtirgan, samarali nutqni tayyorlagan va tinglovchilarga yetkaza olgan notiq o'z nuqtayi nazarini osongina himoya qilishi mumkin bo'lgan. Antik davrda lotin tilida "*Omne nimium nocet*", ya'ni "*Har qanday ortiqchalik zararli*" degan tushunchaning yuzaga kelishi, jamiyatdagi har qanday real va real bo'lmagan harakat-holatlarga, xususiyatlarga nisbatan qo'llanilganki, natijada ortiqchalik bilan bog'liq turli aforizmlar yuzaga kelgan. Masalan, Lutsiy Anney Seneka kichkina "*Har qanday ortiqchalikda nuqson bor*" deb munosabat bildirsa, Gippokratning "*Har qanday ortiqcha narsa tabiatga ziddir*" degan hikmati shu fikrlarning tasdig'idir. Shu sababdan nutqda voqelanuvchi ortiqchalik ham ko'p hollarda keskin rad etilgan.

Kvintilian Mark Fabiy pleonazmni uslubiy figura deb hisoblamagan, balki barcha figuralar uchun giperonim sifatida qaragan. Trifon nutqning ikki turi bor deb ko'rsatgan: to'g'ri nutq va trop. Shunday qilib, to'g'ri nutq – so'zlarning o'z ma'nosi yordamida shakllantirilgan nutq, tropda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanmaydi, ma'lum bir ifoda zarur bo'lgandan ortiqroq bezatiladi¹. Trifon pleonazmni mustaqil figura hisoblagan, uning turlarini ham ko'rsatgan. IX asr boshlarida Konstantinopolda yashagan Georgiy Xirovosk pleonazmni poetik vosita sifatida olgan, pleonazmni ortiqchalik deb atagan, uning ta'kidicha, bunda nutqda ortiqcha qo'llangan so'zlar ma'nosi keraksiz, ortiqcha bo'lmaydi. Xirovosk pleonazm tushunchasini tautologiyaga yaqinlashtirgan².

Dionisiy Galikarnasskiy fikri esa bugungi kunga qadar ifoda etib kelinayotgan ijobiy bahoning dastlabkisi sanaladi. Sharqda ham ortiqchalik nutqni bezovchi unsur

¹ Qarang: Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1990. – С.159.

² Qarang: <http://annales.info/byzant/small/hirovosk.htm>. Максимович К.А. О тропах или об оборотах речи: Трактат Георгия Хировоска в Изборнике Святослава 1073 г.: перевод и комментарий // Историко-культурный аспект лексикологического описания русского языка. – М., 1991. – Ч. 1. – С. 112-129.

sifatida tilga olingan, masalan, arab shoiri Abdulloh ibn Al-Mu'tazz (861-908) ortiqcha qo'llangan elementga ijobiy baho bergan.

Har qanday ortiqchalik "keraksiz, foydasiz" degani emas, ortiqchalikning kommunikatsion funksiyasi bor, o'zaro muloqot jarayonida tushunish, anglash murakkablashgan o'rinlarda ortiqchalik bu holatni bartaraf qiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirgi davrda ham ritorikada pleonazmning o'rinli, tavnologiyaning keraksiz ortiqchalik ekanligi ta'kidlanadi va deyarli lug'atlarda pleonazm ritorik termin sifatida tilga olinadi. Ortiqchalikning ushbu ikki hodisasi mantiqshunoslarni ham qiziqtirgan, ular tavnologiya va pleonazmning informativligiga e'tibor qaratishgan.

Tavnologiya – (grekcha. Ταυτολογία, ya'ni ταυτό va λέγειν – xuddi o'sha narsani aytmoq) termini stilistikada o'rinsiz takror sifatida tushuniladi, ya'ni asosdosh so'zlarni takrorlash natijasida yuzaga keladi. Tavnologiyaning pleonazmdan farqi, ifoda mantiqiy nuqtayi nazardan asossiz bo'lganidek, emotsionallikni ifodalash jihatidan ham ahamiyatga ega emas¹.

Pleonazm – (yun. pleonasmos – ortiqchalik) bir xil yoki sinonimik ifoda vositalarining (til birliklarining) semantik jihatdan takror holda qo'llanishi uslubiy vazifa bajarishga asoslanadi. Pleonastik qo'llanish uchun shakliiy takror asosiy mezon bo'la olmaydi, balki mavjud ma'noning qayta takrorlanishi asosdir. Nutqda takrorlanayotgan birliklarning turi (qo'shimcha, so'z, gap)ga qarab, pleonazmni quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1. Leksik pleonazmlar. 2. Semantik pleonazmlar. 3. Affiksial pleonazmlar. 4. Leksik-affiksial pleonazmlar. 5. Sintaktik pleonazmlar"².

"Dunyo tilshunosligida tavnologiya va pleonazmning lingvistik talqini" deb nomlangan ikkinchi bo'limda aksariyat dunyo tilshunoslarining tavnologiya va pleonazm haqidagi qarashlari aks etgan.

Til va nutqda ortiqchalikni, xususan, tavnologiya va pleonazm hodisalarini tahlil qilish bo'yicha yondashuvlarning xilma-xilligi hodisalarning o'rnini turlicha talqin qilish va baholashni keltirib chiqaradi, bu esa hodisalarni lingvistik nuqtayi nazardan chuqur va batafsil o'rganishni taqozo etadi. Biroq tavnologiya va pleonazm bo'yicha tadqiqotlarning uzoq tarixi hamda lingvistik adabiyotlarda yetarlicha tahlili mavjud bo'lishiga qaramay, bugungi kunda ko'rsatilgan hodisalarning ta'rifi va tasnifida ushbu tushunchalarni farqlash imkonini beradigan yagona mezon mavjud emas.

Zamonaviy tilshunoslikda, xususan, yevropa, rus tilshunosligida nutqda kuzatiluvchi muammolar orasida til birliklarining ortiqcha qo'llanishi evaziga axborotning uzatilishi bevosita ikki hodisa – tavnologiya va pleonazm bilan bog'liq. Har ikkala hodisani o'zaro chog'ishtirish, qo'llanish chastotasini qiyoslash asosida mohiyat mantiq'ini topish mumkin bo'ladi. Shu bois zamonaviy tadqiqotchilarning keng ko'lamli ishlarida tavnologik va pleonastik konstruksiyalar taqqoslash asosida o'rganilgan.

Mavzuni o'rganish jarayoni shuni ko'rsatadiki, tavnologiya hamda pleonazm hodisasi rus tilshunoslari tomonidan nisbatan batafsil tadqiq etilgan, dastlab "pleonazm" atamasi XVIII asrda tilshunoslikka notiqlar tomonidan ekspressivlikni

¹ <https://www.ziyouz.com>. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T harfi. –T.: O'zME, 2006. – B.29-30.

² <https://www.ziyouz.com>. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. P harfi. –T.: O'zME, 2006. – B.266.

ta'minlovchi shakl sifatida qabul qilingan. Yana bir jihat borki, rus tilshunosligida tautologiya doirasida yagona konsepsiya mavjud emas, ayrim ishlarda tautologiya ham stilistik vosita sifatida qaralgan, muloqot jarayonida tautologiyadan foydalanish qo'pol nutq xatosi sanalmasligi, badiiy asarda u muallifning niyatiga bo'ysunishi, tasvirni yaratishga xizmat qilishi va o'quvchiga hissiy ta'sir qilishi ta'kidlanadi. Hodisa turli jihatdan ko'rib chiqiladi: nutq hodisasi va stilistik vosita sifatida¹. Dunyo tilshunosligida tautologiya va pleonazmlarning qiyosiy-tarixiy nuqtayi nazardan o'rganilishi XIX asrdayoq boshlangan (E.Benvenist, A.Meye).

S.I.Ojegov tautologiyani "so'zlarni takrorlash" deb ta'rifladi², V.V.Pchelkina esa tautologiyani tahlil qilishda mantiq ilmidagi ta'riflardan kelib chiqib "mantiqiy xato qo'llanish ekanligini, ifodalangan mazmunni boshqa so'zlar bilan takrorlash" deb talqin qilgan³. A.N.Nikolyukin "ma'noga yaqin so'zlarni takrorlash" deb qarasa⁴, kengroq talqinni esa V.N.Yarseva yondashuvida kuzatish mumkin. Uning ta'kidicha, tautologiya mazmunli ifodaning ortiqcha bo'lishi, butun yoki uning bir qismining semantik takrorlanishi jihatdan pleonazmga o'xshaydi va ba'zan "yovuz pleonazm" deb ham ataladi, ammo tautologiya, pleonazmdan farqli o'laroq, har doim nutq uchun zaruriy yoki stilistik vosita bo'la olmaydi⁵.

Keyingi tadqiqotlarda rus tilshunosligida S.A.Pugach tautologiya badiiy va hissiy jihatdan turli xil semantik va hissiy ekspressiv funksiyalarni bajarishini, A.A.Potebnya tautologiyaning hissiy ta'siri haqidagi o'z nuqtayi nazarini ifoda etib, ushbu hodisa badiiy va hissiy jihatdan ta'sirchan ekanligini, bir necha vazifalarni bajarishini izohlab bergan. Ushbu hodisaning ko'plab muhim jihatlari A.A.Potebnya tomonidan oshkor etilgan. Olim tautologiyaning kelib chiqishini til va fikrlashning rivojlanish qonunlarida, xususan, tilning semantik ravshanligi va ifoda etilishining obyektivligida ko'radi.

E.B.Bogatova tautologiyani uch jihatdan ko'rib chiqqan va quyidagicha ajratgan:

- 1) kutilmagan tautologiya;
- 2) funksional tautologiya;
- 3) tabiiy tautologiya.

Tasodifiy tautologiya muallifning qobiliyatsizligi sababli vujudga keladi, funksional tautologiya so'zlovchining istagi asosida namoyon bo'ladi. Tabiiy tautologiya esa til tizimida avvaldan mavjud bo'lib, til egalari tomonidan yaratilgan bo'ladi.

Bobning uchinchi bo'limi "*Turkiy tilshunoslikda tautologiya va pleonazmga doir qarashlar*" deb nomlangan. Turkologlar N.K.Dmitriyev, A.N.Kononov, A.K.Borovkov, A.M.Shcherbak, E.V.Sevortyan, N.A.Baskakov, A.G'.G'ulomov, S.K.Kenesbayev, M.I.Odilov, K.A.Nazarov, B.O'rinboyev, A.Bolganbayev,

¹ Кораблева Г.Н.Тавтология как стилистический прием (на материале произведений М.Зощенко) // Российский государственный университет им. Н.А. Косыгина (Технологии. Дизайн. Искусство). – М., 2020. – С.205-210.

² Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: Русский язык, 1986. – С.797.

³ Пчелкина В.В. Словарь иностранных слов. – М.: Русский язык, 1989. – С. 495.

⁴ Николокин А.Н. Литературная энциклопедия слов и понятий. – М.: Интелвак, 2003. – С.460.

⁵ Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С.501.

A.Najimov, K.Sharipova va boshqalar pleonastik qo‘llanish masalasiga to‘xtalib o‘tganlar¹.

Turkiyshunoslikda birinchi bo‘lib G.F.Blagova² turkiy tillardagi affiksial pleonazmni qiyosiy-tarixiy va areal-lingvistik asoslarda tahlil qilgan. O‘tgan asrning 50-yillaridayoq qozoq tilshunosligida A.Bolganbayev pleonazm muammosi xususida asosli fikr yuritgan edi, olim ta’kidicha, qozoq tilidagi ot sinonimlar pleonazm va sinonimik qator so‘zlari tarzida farqlanadi, shu bois pleonazmning tildagi rolini o‘rganish uchun chuqur nazariy va amaliy bilimlar talab qilinadi, bu mavzu alohida, mustaqil o‘rganilishi kerak. A.Bolganbayev³ kabi G.D.Ajibekova⁴ ham pleonazmni qozoq tili materiallari asosida o‘rgangan. Quyida keltirilgan birmuncha mukammalroq ta’rif faqat leksik pleonazmlarga xosdir: “Pleonazm bu semantik jihatdan yaqin yoki sinonim leksemalarning o‘zaro aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida birikishidir”. O‘tgan asrning 60-yillaridayoq M.Adilov til sistemasida yuzaga keluvchi takrorlarni ozarbayjon tili misolida o‘rganib, bir xil yoki yaqin ma’nolarni turli til birliklari vositasida takrorlash pleonazm sanalishini ta’kidlagan edi⁵. Aynan bu kabi yondashuv F.Abdukarimovada ham kuzatiladi: “Har qanday takror sintaktik strukturada pleonastik element sifatida amal qiladi”⁶, – degan fikrni ilgari suradi.

O‘tgan asrning 60-yillarida o‘zbek tilshunosligida ilk bor A. G‘ulomov fonetik, leksik pleonazmlar haqida munosabat bildirgan bo‘lsa⁷, R.Qo‘ng‘urov aynan pleonazm terminini qo‘llamagan bo‘lsa-da, tovushlardagi qavatlanish, ya’ni fonetik pleonazm xususida fikr yuritgan⁸. O‘zbek tilshunosligida pleonazm hodisasini chuqur o‘rgangan N.Mahkamov pleonazmning fonetik sathda yuzaga kelishini rad etadi: “Takrorlanayotgan elementlarning turiga qarab, pleonazmni quyidagi gruppalariga: 1.Leksik. 2.Semantik. 3.Affiksial. 4.Leksik-affiksial. 5.Sintaktik pleonazmlarga ajratish mumkin. R.Qo‘ng‘urov tilda fonetik pleonazmlar ham mavjudligini ta’kidlaydi. Bizning fikrimizcha, fonetik takrorlarni pleonastik qo‘llanish deb hisoblamaslik kerak. Aks holda, tovushlarning ikkilanishi, takror so‘z, taqlid so‘z, takror shakllarning barchasini pleonastik qo‘llanish deb atashga to‘g‘ri keladi. Natijada pleonazmning chegarasini aniqlashda qator chalkashliklar vujudga keladi”⁹. Bizningcha, bir tovushning muayyan maqsad bilan aynan takrorlanishi yoki so‘zning ifoda shaklida tovush orttirilishi fonetik pleonazm hisoblanib, ushbu hodisa ham ma’lum pragmatik maqsad uchun xizmat qiladi.

¹ Qarang: Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Тошкент: Фан, 1988. – Б.6.

² Qarang: Благова Г.Ф. Тюркский аффиксальный плеоназм в сравнительно-историческом и ареально-лингвистическом освещении // Вопросы языкознания. – М., 1968. – №6. – С. 81-98.

³ Болганбаев А.Б. Синонимика имени существительного в казахском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1955. – С.5.

⁴ Ажибекова Г.Д. Место плеоназмов в системе средств языковой избыточности (на материале современного казахского языка // СТ. №1. – Баку, 1982. – С. 52.

⁵ Адилев М.И. Система повторов в азербайджанском языке: Автореф. дисс. ...д-ра. филол. наук. – Баку, 1968. – 56 с.

⁶ Абдукаримова Ф.М. Лексический повтор и его место в системе типологически различных языков (на материале узбекского и английского языков): Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Душанбе, 2019. – С.24.

⁷ Гулямов А.Г. Об удвоении звуков при аффиксации в узбекском языке // Ученые записки ТашГПИИЯ, Ташкент, 1963. – № 7.

⁸ Кўнгулов Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент, 1980. – Б.34.

⁹ Mahkamov N.M. Keltirilgan manba. – B.10.

Bu hodisalarning oppozitiv xususiyatlarini, tautologiyaning o‘rinsiz, pleonazmning o‘rinli ortiqchalik ekanligi R.Yusubova¹ tomonidan qiyosiy tahlil etilgan. Olimaning keyingi ishlarida ham tautologiya va pleonazmni tavsiflash asnosida N.Mahkamov, N.Mahmudov qarashlarini davom ettirganligi kuzatiladi: “Aytish mumkinki, tautologiyaning xarakterli xususiyatlaridan kelib chiqilsa, hodisa fikrning semantik yoki stilistik qiymatini oshirishga xizmat qilmaydi”².

Ko‘pgina tadqiqotchilar tilda o‘zaro qarama-qarshi tendensiya – ortiqchalik va tejamlilik mavjudligini ta’kidlaydilar. Xususan, J.Eltazarov “Tildagi tejamlilik tamoyili va qisqaruv”³ nomli monografiyasida ortiqchalik xususida fikr bildirib, ortiqchalik tilning maksimal aniqlikka intilish xususiyati bilan vujudga kelib, til egalarining nutqiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi tejamlilik tamoyili tildagi ortiqchalik xususiyati bilan to‘qnash kelishini ta’kidlaydi.

Y.Tojiyev, N.Nazarova, G.Tojiyevlar “O‘zbek tilidagi ergash morfemalarning semantik-stilistik xususiyatlari (affiksial ma’nodoshlik)”⁴ kitobida pleonastik qo‘llanishdan biror maqsad bo‘lmasa, u ortiqcha, keraksiz ekanligini *o‘rmonzor*, *kulolchi*, *qassobchi*, *omborxona*, *objuvozxona*, *yotoqxona* kabi yasama so‘zlar misolida tahlil etishgan.

A.Pardayev doktorlik dissertatsiyasi monografiyasining bir bobini “Yordamchi so‘zlar pleonazmining pragmatik talqini”⁵ deb nomlagan. Olim bu o‘rinda tautologiya terminini qo‘llamagan, pleonazm xususida esa aniq xulosalarni bayon etgan. F.Ibragimova tadqiqotida pleonazm, tautologiya va antiellipsis hodisalarining bir-biridan farqi izohlangan⁶. Ushbu ishlarda ham pleonazmning ustuvorligi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“XXI asr o‘zbek dramaturgiyasida tautologiya va pleonazmning lingvopragmatik xususiyatlari”** deb nomlanib, badiiy-estetik mazmunning voqelanishida pragmatik omillar, badiiy matnda tautologiya va pleonazmning pragmatik vazifalari dramalardan keltirilgan misollar yordamida ochib berilgan.

“Badiiy-estetik mazmunning voqelanishida lingvopragmatik omillar” nomli birinchi bo‘limda lingvopragmatik omillarning badiiy-estetik mazmunning voqelanishidagi o‘rni xususida mulohazalar yuritilgan. Nutqning voqelanishi inson omili bilan bog‘liq ekan, nutqiy muloqot jarayonini lingvopragmatik nuqtayi nazardan o‘rganish, buning natijasi o‘laroq, aksariyat hollarda qahramonlar nutqi individualligini hosila ma’nolarda ifodalash uchun tautologiya va pleonazmdan foydalanish, ko‘zda tutilgan fikrning ta’sirini kuchaytirish maqsadida ushbu hodisalarni qo‘llash XXI asr o‘zbek dramalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

¹ Юсубова Р. Ҳозирги ўзбек поэзиясида лисоний тежамлилик ва ортиқчалик (А.Орипов лирикаси мисолида): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 24 б.

² Yusubova R.N. Tejamlilik va ortiqchalikning lingvopoetik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri. ...diss. – Samarqand, 2021. – B.27.

³ Элтазаров Ж.Д. Тилдаги тежамлилик тамойили ва қисқарув. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2004. – Б.9.

⁴ Тожиев Ё., Назарова Н., Тожиева Г. Ўзбек тилидаги эргаш морфемаларнинг семантик-стилистик хусусиятлари (аффиксал маънодошлик). – Тошкент, 2012. – Б.44.

⁵ Пардаев А.Б. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. Монография. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.135-139.

⁶ Ибрагимова Ф. Бадий матнда эллипсис ва антиэллипсис: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б.12.

Badiiy matnda muallifning kommunikativ maqsadini amalga oshirish hamda tinglovchiga ta'sir etish, o'z kechinma va hissiyotlarini yetkazish uchun turli til birliklarini noodatiy qo'llash holatlarini uchratish mumkin. Badiiy asar mazmunining lingvopragmatik xususiyatlarini ochib berishda tilning ifoda-tasvir vositalaridan unumli va o'rinli foydalanish yozuvchidan o'ta sinchikovlik va katta mahorat talab qilishi tabiiydir. Lingvopragmatik omillarning o'zi ham rang-barang, ularning har birini pragmatik mazmun va so'zlovchi intensiyasi hamda nutqiy natija nuqtayi nazaridan atroflicha tahlil qilish amaliy tilshunoslik, tildan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish muammolari yechimida katta ahamiyat kasb etadi. Pleonazmni ifodalovchi vositalar badiiy asarga xos uslubiy pragmatik xususiyatlarni atroflicha tahlil etishda muhim hisoblanadi. Muallif nutq jarayonida lisoniy vositalaridan o'z maqsad, nutqiy sharoit, kayfiyat va holatiga qarab foydalanadi, mazkur vositalar badiiy asarda yaxlitlik uchun xizmat qiladi.

Badiiy matnni lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilish, uning ta'sir mexanizmi hamda samaradorlik omillarini aniqlash, shaxs, nutqiy vaziyat, kommunikativ strategiya va taktika, baho kategoriyasi kabilarning muallif intensiyasi bilan aloqadorligini tahlil qilish tilning pragmatik zaxirasini ochib berish imkonini beradi.

Bobning ikkinchi bo'limi "*Dramatik matnda tautologiyaning pragmatik vazifalari*" deb nomlangan. Tautologiya o'rinsiz ortiqchalikka asoslangan nutq hodisasi sifatida, pleonazmdan farqli o'laroq, til tizimi va me'yori doirasiga kirmaydi. Masalan, *yuqoriga ko'tarilish, tugallanmagan qurilish obyektlarini tugatish, baxtli tabassum ila tabassum qilish* misollarida *ko'tarilmoq* leksemasining "balandlik" semasiga egaligi, ikkinchi misolda *qurilish obyektlarini tugatish* jumlasining yetarliligi, bu o'rinda *tugallanmagan* so'ziga ehtiyoj yo'qligi, oxirgi misolda *tabassum* so'zining takror qo'llanishi, shuningdek, leksemda ijobiy ma'no bo'rtib turishi inobatga olinsa, *baxtli* leksemasining ham ortiqcha hissaga egaligi ko'rinib turibdi. Bu kabi nutqiy xatolarni ona tilida ifodali so'zlashuvchilar darrov payqashadi, badiiy matnda esa nutq egasining tildan to'g'ri foydalanish malakasiga ega emasligini, saviyasi darajasini ko'rsatish uchun qo'llanadi.

Tautologiya – bilimlar yetishmasligi natijasida yuzaga keluvchi nutqiy kamchilik, ya'ni so'zlovchi til malakasining yetarli emasligi hamda so'zlovchining nutq paytidagi affektiv holatida, ya'ni turli psixik holatlar natijasida namoyon bo'ladi. Tautologiyaga berilayotgan bir tomonlama ta'riflarda chalkashlik mavjudligini, ushbu hodisaga shaklga qarabgina ta'rif berish tautologiya haqidagi qarashlarni chegaralab qo'yayotganligini ko'rish mumkin. Masalan, *Chori bobo: – Qoyilman, qizim, Baraka top! Anavi ipak o'ramini chapdagi g'altakka bog'lasang yaxshi bo'ladi, dastgohning o'qini ozroq pastga tushiringlar* (Q.Norqobilov, "Quyoshni sen uyg'otasan"). Ushbu o'rinda "pastga tushmoq" tautologik birikmasi qo'llangan bo'lib, "tushmoq" leksemasi "pastga" semasiga ega bo'lib, ifodada *pastga* leksemasining qo'llanishi ortiqchadir va tautologiyani yuzaga keltirgan. So'zlovchining sotsial roli va mavqeyi, qulay pragmatik vaziyat hamda kayfiyat kabilar mushtaraklikda lisoniy birlikning qo'llanishiga sabab bo'lgan. Tautologiya faqatgina til haqidagi bilimlarning yetishmaganligi sabab emas, balki insonning turli psixik holatlarga duch kelgan holatida ham yuzaga kelishi mumkin.

Bobning “*Dramatik matnda pleonazmning pragmatik xususiyatlari*” deb nomlangan uchinchi bo‘limida dramalardan keltirilgan misollar izohlanib, pleonazmning pragmatik xususiyatlari tahlil etilgan. Kommunikativ intensiyada so‘zlovchi o‘z maqsadiga erishish uchun bir vaqtning o‘zida pragmatik omillarga bo‘ysunishi bilan birga, ularni ustalik bilan o‘ziga moslashtirishga intiladigan o‘rinlarda lisoniy vositalar qo‘llanishiga ham ustuvorlik beriladi. Xususan, tilning fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaktik sathlarida qo‘llangan pleonazmlar fonopragmatik, leksopragmatik, morfopragmatik, lekso-morfopragmatik hamda sintaksopragmatik talqin asosida tahlilga tortilgan:

1. Fonetik sathda pleonazm hodisasi tovushlarning orttirilishidan yuzaga keladi. Tovush orttirilishi fonostilistik tomondan nutqiy ohangdorlikni hosil qilgan bo‘lsa, pragmatik jihatdan esa muayyan maqsadni yuzaga chiqarishni nazarda tutadi. Nutq egasining ijobiy yoki salbiy emotsiyasini ko‘rsatishga harakati natijasidagi holati fonetik pleonazmning “ta’kid”, “piching”, “kesatiq” ma’nosini namoyon qiluvchi faol pragmatik omil sifatida baholanadi. *Mazza! Sizlarga ozor bersam, men mazza qilaman, rohatlanaman* (A.Ibrohimov, “Oyna sindi”).

2. Badiiy matnda, personaj nutqida leksemalar ortiqcha qo‘llanishiga sabab bo‘lgan asosiy pragmatik omil so‘zlovchi nutqining boyligini ko‘rsatish, tinglovchiga fikrni batafsil va aniqroq yetkazishga harakat qilish, fikrga aniqlik kiritish kabilarda birlamchi manba sanalmish sinonimlar yetakchi hisoblanadi: *Ko‘kdagi.....ikki qirg‘oq kuchlari ro‘baro‘, yuzma-yuz* (Gulnora Rahmon, “Sipohiylar xonadoni”). “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *ro‘baro‘* – qarama-qarshi tomon, qarshi, ro‘para; *yuzma-yuz* ham qarshi tomon ma’nolarini anglatadi¹. Masalan, *Ro‘baro‘ kelmoqqa yo‘q bizda toqat, Takror uchrashtirar bizni bu ko‘cha* (U.Qo‘chqorov, “Hayajonga ko‘milgan dunyo”). *Ular stolning ikki tomonida bir-birlariga yuzma-yuz bo‘lib o‘tiribdilar* (X.To‘xtaboyev, “Shonli avlod”).

3. Badiiy nutqda muallifning personaj xarakterini yoritish maqsadida ham grammatik shakllarni o‘ziga xos tarzda qo‘llash holatlari uchrab turadi. Bunda pragmatik omilni yuzaga chiqarish maqsadida lisoniy omillar uyushadi. Uyushiq bo‘laklarda (otlar uyushib kelganda) affikslarning pleonastik qo‘llanishi, asosan, uch xil grammatik kategoriya: egalik, kelishik va son ko‘rsatkichlari doirasida kuzatiladi. Bu, albatta, dramaning qaysi davr voqealari bilan boyitilganligi, nutq egasining ijtimoiy mavqeyi bilan bog‘liq, nutqdagi ta’kid, nutqning viqorlilik, ohangdorligi kabilar, asosan, davlat rahbarlari, tarixiy dramalarda esa shohlarning nutqiga xos jihatlardir: *Farzandlarim adolatni, insofni, diyonatni, or-nomusni himoya qilishg‘a qasamyod qilg‘on edilar* (Gulnora Rahmon, “Sipohiylar xonadoni”).

4. Pragmatik omillar nutq jarayonida lisoniy omillarning tegishli me’yoriy qonuniyatlar asosida tanlanishida, ular ma’nolarining muayyan intensial ehtiyoj va zaruratga ko‘ra modifikatsiyalanishida belgilovchi rol o‘ynaydi. Bir jumlada ham leksik, ham grammatik shakllarning qo‘llanishi orqali leksik-affiksial pleonazm hosil bo‘ladi, bunda bir-birini taqozo etuvchi, grammatik va stilistik jihatdan mos so‘zlar tanlanadi: *Hisob amalini quloch-quloch so‘zlar bilan bajarish osonmi?* (I.Mirzo, “Samarqand sayqali”)

¹ Qarang: <https://www.izohli.uz/words>.

5. Pragmatik yondashuvda fikr ifodalashning qulay va unumdor shakllarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Dramalarda, personajning dialektal nutqida sintaktik pleonazm uchraydi. So'zlovchi nutqida bayon qilinayotgan fikrdan chalg'imaslik, nutqida izchillikni ta'minlash, tinglovchi diqqatini o'ziga ko'proq jalb etish kabi pragmatik omillar natijasida birinchi gapning oxirgi qismi ikkinchi gap boshida keltiriladi: *Melis (onasining vajohatidan cho'chib oshxona tomon chekinarkan). U yoqlar ham siz o'ylaganchalik jannat emasdir, ena! "Amerikada yashayman degan odam Kennedi aeroportiga borib tushgan zahoti ko'krigidan yuragini yulib oladi, yulib olib oyog'i ostida ezg'ilay-ezg'ilay, shundan keyingina dollar yurtiga qadam bosmog'i kerak. Jahannam, jahannam!" derdi-ku anovi ukajoningiz! Esingizdan chiqdimi shu gaplar?* (E.A'zam, "Jannat o'zi qaydadir")

